



XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHI

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko'chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2021 - yil 14 - oktabr

VI-31-18-8-116-K/21

Sariosiyo tuman hokimligi

Sariosiyo tumanida 2021 yil uchun eksport prognoz ko'rsatkichlarini bajarish, mahalliy eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida Sariosiyo tumani xokimining o'rinbosari, Investitsiya va tashqi savdo bo'limi boshlig'i B.Sattorovning xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqsisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyada xisoboti eshitalishi bo'yicha

Sariosiyo tumanida 2021 yil uchun eksport prognoz ko'rsatkichlarini bajarish, mahalliy eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida Sariosiyo tumani xokimining o'rinbosari, Investitsiya va tashqi savdo bo'limi boshlig'i B.Sattorovning xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqsisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyada xisoboti eshitalishi bo'yicha, xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashi,

Qaror qiladi:

1. Sariosiyo tumanida 2021 yil uchun eksport prognoz ko'rsatkichlarini bajarish, mahalliy eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida Sariosiyo tumani xokimining o'rinbosari, Investitsiya va tashqi savdo bo'limi boshlig'i B.Sattorovning xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqsisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyada xisoboti eshitalishi bo'yicha doimiy komissiyaning qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda korxonalar eksport salohiyatini oshirish bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirilganligi, shu bilan bir qatorda mazkur sohada qator kamchiliklar mavjudligi qayd etilsin.

3. Tuman hokim o'rinbosari(B.Sattrov)ga joriy yilning 1 oktyabrigacha tuman xokimligi iqtisodiyot majmuasi, tijorat banklari, tuman hokimligi qishloq xo'jaligi majmuasi, tuman dehqon va fermerlar uyushmasi, yirik eksportyor korxonalar va tadbirkorlar ishtirokida tuman korxonalarida eksport ahvolini tahlil etish hamda uning salohiyatini jadal ravishda yuksaltirish

bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimi (A.Xujaqulov)ga tuman hokimligining iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohalariga rahbarlik qiladigan majmualari xodimlari faoliyatiga ular rahbarlik qilayotgan sohalarda eksport ishlarining dinamikasi bo'yicha baho berish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga: mazkur qarorlarning o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan deputatlik nazoratini olib borish;

o'rganish natijasi bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi davomida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish yuzasidan jamoatchilik muhokamasini o'tkazish vazifalari yuklatilsin.

6. Tumanda investitsiya loyihalarini amalga oshirishga doir tasdiqlangan dasturlarga ko'ra loyihani amalga oshirilishida mas'uliyatsizlikga, sansonarlikka yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan yil yakunida egallab turgan vazifasidan ozod etishgacha bo'lgan choralar qo'llanilishi, loyiha tashabbuskorlariga tegishli tartibda choralar ko'rilishi yuzasidan ogohlantirilsin.

7. Ushbu karorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Bo'riev), tuman hokimining o'rinbosari, Investitsiya va tashqi savdo bo'limi boshlig'i (B.Sattorov), xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (S.Asadov) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.P.Xujaqulov